



## Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-iyul)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9712,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 97,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (95,0 %) ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 25,3 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 32,9 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining – 9,2 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 25,2 % ga o'sganligi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi**



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 124,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini tashkil etdi.



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalaridan tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan shagʻal qazib olish - 93,2 % ga oʻsgan, shuningdek neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻilash xizmatlari - 30,2 % ga, texnik oltingugurt qazib olish esa 14,3 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Texnik oltingugurt, tonna.	879,0	753,0	-126,0
Shag'al, tonna.	15377,0	29711,0	14334,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari, mln. so'm.	151366,2	105606,5	-45759,7



### Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9228,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,0% ini tashkil etdi, o'tgan yilning tegishli (mos yanvar-iyul oylarida) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 109,2 % ni tashkil etdi.







### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2019- yil yanvar-iyul oylarida - 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 1,8 % (1,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 58,9 % (58,0 %) va quyi texnologiyalisi - 39,2 % (40,1 %) ni tashkil etdi.


**2019- yil**  
yanvar-iyul, % da



 yuqori texnologiyali  
 o'rta-yuqori texnologiyali

**2020- yil**  
yanvar-iyul, % da



 quyi texnologiyali  
 o'rta-quyi texnologiyali

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash maxsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 47,8 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 118,6 %), kimyo mahsulotlari rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,1 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,7 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,7 %), boshqa nometall mineral maxsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 5,9 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,0 %) ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 479,9 ming tonna avtomobil benzini (10,5 % ga), 56,8 ming tonna mazut (23,7 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi shuningdek 729,0 ming litr aroq (2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan (0,5 % ga), 374,5 ming tonna dizel yoqilg'isi (15,8 % ga), o'simlik yog'i (16,2 % ga) kamaygan.



### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Aroq, ming litr.	732,9	729,0	-3,9
Avtomobil benzini, ming tonna	434,3	479,9	45,6
Dizel yoqilg'isi, ming t.	444,9	374,5	-70,4
Mazut, ming t.	45,9	56,8	10,9
O'simlik yog'i tozalangan, ming t	15,3	12,8	-2,5



**Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	45,0	54,2	9,2
Paxta chigiti, <i>ming t.</i>	68,5	88,9	20,4
Un mahsuloti, <i>ming t</i>	47,0	54,1	7,1

Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda (2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan) paxta tolasi (20,5 %) ga, paxta chigiti (29,8 %) ga, un (15,2 %) ga o'sishini kuzatish mumkin. Shuningdek o'simlik yog'i 16,2 % ga kamaygan.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 288,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 125,2 % ga o'sganligi kuzatildi, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 28,5 % ga oshganligini shuningdek Issiqlik energiyasi 4,3 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	2,9	3,7	0,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal.	523,9	501,4	-22,5



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi, o'tgan yilning tegishli (mos yanvar-iyul oylarida) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 74,7 % ni tashkil etdi.





**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	4702,7	5375,2	672,5
Axlat o'ralarini, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - mln. so'm	197,2	263,6	66,4

Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 14,3 % ga, Axlat o'ralarini, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 33,6 % ga oshganligi kuzatildi.



**Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3472,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 35,7 % ni tashkil etdi.




2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-iyul oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 62,9 % dan 60,2 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 1,8 % (2019- yil yanvar-iyul oylarida 1,8 %) ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani 20,9 % (iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi 726,3 mlrd. so'm), Buxoro shahar 19,1 % (662,4 mlrd. so'm), Kogon tumani 10,6 % (369,6 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (95,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kogon(109,0 %), Qorovulbozor (104,5 %), Qorako'l (101,5 %) Shofirkon (100,2 %), tumanlarida qayd etildi.



**Shaharlar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari  
ishlabchiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**

	Mrld. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>3472,0</b>	<b>100,0</b>	<b>95,3</b>
<i>shaharlar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	662,4	19,1	100,0
Kogon shahar	190,6	5,5	82,7
Olot tumani	76,2	2,2	95,2
Buxoro tumani	187,9	5,4	71,9
Vobkent tumani	179,7	5,2	72,6
G'ijduvon tumani	348,0	10,0	100,0
Kogon tumani	369,6	10,6	109,0
Qorako'l tumani	201,0	5,8	101,5
Qorovulbozor tumani	726,3	20,9	104,5
Peshko' tumani	69,3	2,0	85,5
Romitan tumani	137,8	4,0	100,1
Jondor tumani	171,2	4,9	81,8
Shofirkon tumani	152,0	4,4	100,2

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib 26,8% ni, G'ijduvon tumanida 11,0 %, Qorako'l tumanida 10,6 % ni shuningdek Buxoro tumanida 8,9 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida (111,3 %), G'ijduvon tumanida (109,9 %) Qorako'l tumanida (108,5 %) ni, qayd etildi.



**Shaharlar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1361,3</b>	<b>100,0</b>	<b>102,9</b>
<i>shaharlar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	365,1	26,8	111,3
Kogon shahar	89,2	6,6	83,2
Olot tumani	36,6	2,7	102,9
Buxoro tumani	121,1	8,9	93,2
Vobkent tumani	73,4	5,4	101,4
G'ijduvon tumani	149,9	11,0	109,9
Kogon tumani	62,7	4,6	104,3
Qorako'l tumani	143,6	10,6	108,5
Qorovulbozor tumani	21,0	1,5	107,3
Peshko' tumani	42,5	3,1	97,8
Romitan tumani	63,4	4,7	104,6
Jondor tumani	109,2	8,0	95,6
Shofirkon tumani	83,6	6,1	101,5



Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 33,4 % ni, shuningdek, Kogon tumani 14,5 % ni, Buxoro shahari 14,1 % ni, hamda G'ijduvon tumani 9,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatdagi o'sish sur'ati (91,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kogon (110,0 %) va Qorovulbozor tumanlarida (104,5 %) qayd etildi.



**Shaharlar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2110,7</b>	<b>100,0</b>	<b>91,0</b>
<i>shaharlar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	297,3	14,1	88,9
Kogon shahar	101,4	4,8	82,3
Olot tumani	39,6	1,9	89,1
Buxoro tumani	66,8	3,2	50,9
Vobkent tumani	106,3	5,1	60,6
G'ijduvon tumani	198,1	9,4	93,7
Kogon tumani	306,9	14,5	110,0
Qorako'l tumani	57,4	2,7	87,4
Qorovulbozor tumani	705,3	33,4	104,5
Peshko' tumani	26,8	1,3	71,3
Romitan tumani	74,4	3,5	96,6
Jondor tumani	62,0	2,9	65,2
Shofirkon tumani	68,4	3,2	98,7



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 691,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 7,1 % ni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish eng koʻp Kogon tumanida 261,1 mlrd. soʻmni Kogon shaharda 207,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



**Buxoro viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-iyul mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>9712,8</b>	<b>97,5</b>
<i>shaharlar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	1135,5	107,4
Kogon shahar	440,3	104,5
Olot tumani	270,9	102,3
Buxoro tumani	250,1	79,2
Vobkent tumani	189,5	86,4
Gʻijduvon tumani	698,9	115,4
Kogon tumani	498,2	110,4
Qorakoʻl tumani	302,5	108,2
Qorovulbozor tumani	4767,6	116,8
Peshkoʻ tumani	155,5	95,3
Romitan tumani	534,3	189,5
Jondor tumani	259,6	83,2
Shofirkon tumani	209,9	98,0




**Buxoro viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar fizik hajm indeksi iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Buxoro (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 79,2%), Jondor 83,2 %), Vobkent (86,4 %), Peshko' (95,3 %), Shofirkon (98,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.


**Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, % da**



**Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Kogon tumanida (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 109,0 %), Qorovulbozor (104,5 %), Qorako'l (101,5 %), Shofirkon (100,2 %), Romitan (100,1 %), tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

**Buxoro viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 49,0 %), Buxoro shahar (11,7 %), G'ijduvon tuman (7,2 %), Romitan tuman (5,5 %), Kogon tuman (5,1 %) Kogon shahar (4,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Qorovulbozor (260522,4 ming so'm), Kogon shahar (7194,8 ming so'm), Kogon tuman (6362,6 ming so'm) Buxoro shahar (4046,7 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1800,6 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 39690,8 ming so'mni, Kogon tumanida – 4719,6 ming so'mni, Kogon shaharida – 3114,0 ming so'm, Buxoro shahri 2360,5 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2020- yil yanvar-iyul oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>5037,3</b>	<b>1800,6</b>
<i>shaharlar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	4046,7	2360,5
Kogon shahar	7194,8	3114,0
Olot tumani	2730,9	768,3
Buxoro tumani	1500,2	1127,4
Vobkent tumani	1355,9	1285,4
G'ijduvon tumani	2298,9	1144,7
Kogon tumani	6362,6	4719,6
Qorako'l tumani	1845,4	1226,5
Qorovulbozor tumani	260522,4	39690,8
Peshko' tumani	1266,4	564,6
Romitan tumani	3770,5	972,5
Jondor tumani	1488,9	981,7
Shofirkon tumani	1184,1	857,1



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**  
(2020- yil yanvar-iyul oylarida, % da)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar sub'ektlari tomonidan 3156,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 32,5 % ni tashkil etmoqda shuningdek sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,3 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Vobkent tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Buxoro (99,7 %), Shofirkon (79,8 %), Jondor (70,4 %), G'ijduvon (65,5 %), Buxoro shahar (59,0 %) Olot (52,8 %) kuzatildi.

Viloyatimiz shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Qorovulbozor tumani (0,9 %), Romitan tuman (27,6 %), Kogon shahar (42,8 %) da sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.







**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini**  
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3931 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1143 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 29,1 % i) Buxoro shahrida, 484 tasi (12,3 %) G'ijduvon tumanida, 324 tasi (8,2 %) Buxoro tumanida, 308 (7,8%) Kogon tumanida, 281 (7,1%) Jondor tumaniga, 259 (6,6 %) Romitan tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**



2020- yil yanvar-iyul holatida yangi 595 ta sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib shundan 110 tasi (18,5 %) Buxoro shahriga, 82 tasi (13,8 %) G'ijduvon, 50 tasi (8,4 %) Kogon 47 tasi va (7,9 %) Buxoro tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Sanoat statistikasi bo'limi**

Tel.: (65) 220-83-06